



VARIETIES AND LINES OF BREAD WHEAT WITH VALUABLE AGRONOMIC TRAITS

Ochilov Zafar Abdullayevich

Doctor of Philosophy (PhD) in Agricultural Sciences.,

Scientific research Institute of rainfed Agriculture.,

e-mail: zafarochilov827@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19853906>

ARTICLE INFO

Received: 22nd April 2026

Accepted: 27th April 2026

Online: 28th April 2026

KEYWORDS

Selection, variety, sample, line, productivity, spike length, number of grains, 1000-grain weight, yield.

ABSTRACT

The article highlights the analysis of scientific research results conducted in 2025 on productive, high-yielding new varietal samples of rainfed bread wheat with valuable traits and properties in the control variety field.

YUMSHOQ BUG'DOYNING QIMMATLI XO'JALIK BELGILARIGA EGA NAV VA TIZMALARI

Ochilov Zafar Abdullayevich

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).,

Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti.,

e-mail: zafarochilov827@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19853906>

ARTICLE INFO

Received: 22nd April 2026

Accepted: 27th April 2026

Online: 28th April 2026

KEYWORDS

Seleksiya, nav, namuna, tizma, mahsuldorlik, boshqoq uzunligi, don soni, 1000 dona don vazni, hosildorlik.

ABSTRACT

Maqolada lalmi yumshoq bug'doyning qimmatli belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan, nazorat nav maydonidagi mahsuldor, yuqori hosilli yangi nav namunalari ustida 2025-yilda olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha taxlillari yoritib berilgan.

Kirish. Respublika aholisining don mahsulotlariga bo'lgan talabining ortib borishi, sug'oriladigan hamda lalmikor yerlardagi boshqoqli don ekinlari maydonini qariyib 1,2 gektarga yetishiga olib keldi.

Respublikamizda don mustaqilligiga erishilgan bo'lsa-da, g'alla ekinlarining yuqori hosilli navlarini va ularni yetishtirishning progressiv

texnologiyalarini joriy etish orqali hosildorlikni oshirish va davlatimizning eksport salohiyatini yanada yuksaltirish imkoniyatlari mavjud [1].

Bug'doy o'simligi o'suv davrining davomiyligi (vegetatsiya davri) alohida muhim ko'rsatkichlaridan bo'lib hisoblanadi. Bu xususiyat bug'doy o'simligining genetik jihatidan irsiy tuzilishiga bog'liq bo'lishi bilan birga,



uning qanday sharoitda o'stirilayotganligiga, ya'ni tuproq-iqlim va meteorologik sharoitlarga, o'stirish agrotexnologiyasiga, ekish muddatiga, kuzda maysalar paydo bo'lishi vaqtiga ham bog'liqdir. Shuning uchun bug'doy o'simligining o'suv davri davomida o'simlikning rivojlanish fazalari turli yillarda har xil vaqtga to'g'ri kelishi mumkin[3].

Seleksiya jarayonida asosiy poya boshog'iga teng keladigan ikkilamchi paydo bo'lgan boshqoli poyalari ko'p bo'lgan namunalarni tanlash katta ahamiyatga ega. O'simlikdagi mahsuldor tuplanish bilan don hosildorligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud bo'lib, bunda asosan agrotexnik tadbirlar muhim rol o'ynaydi [4].

Bug'doy don hosili uning miqdor va sifatiga ta'sir qiluvchi bir qancha tashqi muhit sharoitlari hisoblangan biotik va abiotik omillar ta'siriga bog'liq ravishda shakllanadi [2].

Materiallar va metodlar. Ilmiy tadqiqotlar 2025-yil Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba maydonida olib borildi. Tajribalarda 130 ta nav va tizmalar 2 qaytariqda 10 m² dan ekildi. Nav va tizmalarni taqqoslashda andoza nav sifatida «Tezpushar» navidan foydalanildi. Tajribalarni joylashtirish va matematik taxlil qilish B.A.Dospexov (1985) bo'yicha, tajriba kuzatuvlari, taxlillari sobiq Butunittifoq O'simlikshunoslik instituti (VIR 1984 y), Mejdunarodny klassifikator SEV roda Triticum L. (1984) hamda ICARDA va DDEITI G'allaorol ilmiy-tajriba stansiyasi tomonidan (2004-yil) ishlab chiqilgan va qabul qilingan uslubiy qo'llanmalar asosida olib borildi.

Natija va ularning tahlili.

O'rganilgan nav liniyalarning o'suv davri, yotib qolishga, kasalliklarga, noqulay ob-havo sharoitlarga va boshqa qimmatbaho xo'jalik-biologik belgi xususiyatlari turlicha bo'ldi.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra nazorat maydonida gektaridan olingan o'rtacha hosildorlik 18,5 s ni tashkil etdi. Andoza «Tezpushar» navida bu ko'rsatkich gektariga 20,5 s ni tashkil etdi.

Andoza «Tezpushar» naviga nisbatan yuqori hosil bergan 16 ta nav va liniyalarning hosildorligi gektariga 20,5 sentnerdan 27,1 sentnergachani tashkil etdi. Hosildorligi, ertapisharligi, qurg'oqchilikka, chidamliligi, hajm og'irligi tahlil qilinib, 24 ta nav liniyalari SP II-2013/16, SP II-2013/65, SP II-2013/78, SP II-2013/83, SP II-2013/104, SP II-2013/107, SP II-2013/174, SP II-2013/254, SP II-2013/272, IK.SP II-2013/97, IK.SP II-2013/99, IK. SP II-2013/20, KP-2013/29, KP-2013/54, KP-2013/1, KP-2013/19 liniyalar andoza naviga nisbatan 2,8 sentnerdan 6,6 sentnergacha yuqori hosil berganligi aniqlandi. Shulardan 14 nav dastlabki nav sinoviga o'tkazildi. Bular quyidagilar: yumshoq bug'doyda SP II-2013/65, SP II-2013/78, SP II-2013/83, SP II-2013/104, SP II-2013/174, SP II-2013/66, SP II-2013/272, IK.SP II-2013/8, IK.SP II-2013/99, IK.SP II-2013/20, KP-2013/29, KP-2013/54, KP-2013/1, KP-2013/19 va 32 ta liniya tajribada qayta o'rganish uchun qoldirildi. Hosildorligi va boshqa qimmatli xo'jalik belgilari jihatidan andoza naviga nisbatan qimmatli-xo'jalik belgilari bo'yicha past ko'rsatkichga ega bo'lgan 75 ta nav liniyalari yaroqsiz deb topildi.



Nazorat pitomnigidagi tanlangan nav liniyalarning mahsuldorlik elementi ko'rsatkichlari, qimmatli xo'jalik-biologik belgilari va yuqori hosil bergan liniyalarning tavsifi 1-2 jadvallarda berilgan.

Yumshoq bug'doyning nazorat pitomnigida tanlangan nav, liniyalarning mahsuldorlik elementlari ko'rsatkichlari (G'allaorol 2025 y).

1-jadval.

T/p	Nav va liniyalari	Tuplash, (dona)		Asosiy boshqning ko'rsatkichlari				1 ta o' simlikdagi don vazni, (g)	1000 dona don vazni, (g)
		Umumiy	Mahsuldor	Uzunligi, (sm)	Boshqcha soni, (dona)	Don soni, (dona)	Don vazni, (g)		
1	Tezpishar (andoza)	3,4	2,2	9,0	16,0	32,0	1,1	2,5	38,0
2	SP-2013/16-NP-2014/8	2,8	1,7	8,6	16,4	33,0	1,1	1,9	39,0
3	SP-2013/17-NP-2014/9	3,6	2,3	9,6	16,8	31,0	1,2	2,4	38,5
4	SP-2013/20-NP-2014/10	3,4	2,2	9,0	15,2	30,0	1,1	2,3	37,9
5	SP-2013/65-NP-2014/23	3,2	2,1	10,0	16,8	29,0	1,1	2,2	39,1
6	SP-2013/78-NP-2014/26	3,2	2,2	8,0	16,0	31,0	1,2	2,3	38,5
7	SP-2013/83-NP-2014/27	3,0	2,0	8,0	16,0	32,0	1,3	2,6	40,0
8	SP-2013/88-NP-2014/28	3,0	2,0	8,6	15,2	31,0	1,2	2,3	38,3
9	SP-2013/104-NP-2014/37	3,0	2,1	8,6	16,4	32,0	1,2	2,6	39,0
10	SP-2013/107-NP-2014/38	4,2	2,5	8,8	16,8	35,0	1,3	2,6	37,8
11	SP-2013/174-NP-2014/53	3,0	2,0	8,8	15,6	31,0	1,2	2,4	38,2
12	SP-2013/196-NP-2014/55	2,8	1,7	10,0	18,0	33,0	1,2	2,1	37,6
13	SP-2013/254-NP-2014/66	3,4	2,2	10,8	18,8	36,0	1,4	2,9	40,5
14	SP-2013/272-NP-2014/70	3,2	2,0	9,0	18,0	34,0	1,3	2,6	38,8
15	SP-2013/333-NP-2014/77	3,6	2,4	8,4	14,8	29,0	1,1	2,5	38,0
16	IK SP-2013/8-NP-2014/97	3,0	2,0	9,6	16,0	31,0	1,2	2,4	38,2
17	IK SP-2013/18-NP-2014/99	3,3	2,1	9,8	18,0	34,0	1,2	2,4	37,5
18	IK SP-2013/20-NP-2014/102	3,2	2,0	10,0	20,0	36,0	1,3	2,6	37,0
19	NP-2013/17-NP-2014/108	3,2	2,0	10,6	20,0	40,0	1,5	3,0	40,2
20	NP-2013/29-NP-2014/110	3,2	2,1	8,2	14,0	28,0	1,1	2,3	39,6
21	NP-2013/41-NP-2014/112	3,0	2,0	9,1	16,4	30,0	1,1	2,2	38,2
22	NP-2013/54-NP-2014/113	3,4	2,2	9,3	16,0	35,0	1,4	2,9	39,8
23	NP-2013/Ya:1-NP-2014/114	3,4	2,1	8,5	16,4	34,0	1,4	2,8	40,6
24	NP-2013/Ya:4-NP-2014/117	3,0	2,0	9,0	19,0	37,0	1,3	2,5	37,5
25	NP-2013/Ya:19-NP-2014/133	3,2	2,2	9,1	17,0	30,0	1,1	2,5	38,1

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, mahsuldor tuplash tajriba yilida 1,7 donadan 2,2 donani, boshq uzunligi 8,0 sm dan 10,8 sm gachani, boshqcha soni 14 tadan 20 ta gachani, don soni 28

donadan 40 donagachani, don vazni esa 1,1 grammdan 1,4 grammgachani tashkil etmoqda. 1000 dona don vazni ham turlicha bo'lib, bu ko'rsatkich 37,5



grammdan 40,6 grammgachani tashkil qildi.

2-jadval.

Yumshoq bug'doyning nazorat pitomnigida tanlangan nav va

liniyalarning qimmatli xo'jalik ko'rsatgichlari va hosildorligi (G'allaorol 2025).

T/r	Nav va liniyalar	O' simlik bo' yi, (sm)	Boshqlash muddati, (kun, oy)	Zang kasalliklari bilan zararlanishi, (%)		Hosildorlik, (t/ga)	Andozaga nis-batan farqi, (±)
				Sariq	Qo'ng'ir		
1	Tezpushar (andoza)	80	10.05	10	0	20,5	±
2	SP-2013/16-NP-2014/8	76	10.05	5	0	24,1	+3,6
3	SP-2013/17-NP-2014/9	80	10.05	15	5	23,3	+2,8
4	SP-2013/20-NP-2014/10	81	9.05	10	0	23,6	+3,1
5	SP-2013/65-NP-2014/23	85	9.05	0	0	25,4	+4,9
6	SP-2013/78-NP-2014/26	80	9.05	5	5	24,3	+3,8
7	SP-2013/83-NP-2014/27	65	9.05	0	0	27,1	-6,6
8	SP-2013/88-NP-2014/28	75	10.05	10	0	24,6	+4,1
9	SP-2013/104-NP-2014/37	61	14.05	0	0	25,8	+5,3
10	SP-2013/107-NP-2014/38	70	12.05	5	5	24,2	+3,7
11	SP-2013/174-NP-2014/53	55	11.05	5	0	25,0	+4,5
12	SP-2013/196-NP-2014/55	50	9.05	10	0	23,7	+3,2
13	SP-2013/254-NP-2014/66	55	8.05	0	0	27,1	+6,6
14	SP-2013/272-NP-2014/70	54	9.05	5	5	24,5	+4,0
15	SP-2013/333-NP-2014/77	59	10.05	10	0	24,0	+3,5
16	IK SP-2013/8-NP-2014/97	70	11.05	10	0	24,4	+3,9
17	IK SP-2013/18-NP-2014/99	91	9.05	5	5	24,6	+4,1
18	IK SP-2013/20-NP-2014/102	74	10.05	0	0	25,8	+5,3
19	NP-2013/17-NP-2014/108	62	10.05	0	0	26,0	+5,5
20	NP-2013/29-NP-2014/110	55	9.05	0	0	26,1	+5,6
21	NP-2013/41-NP-2014/112	56	9.05	10	0	23,6	+3,1
22	NP-2013/54-NP-2014/113	96	10.05	0	0	26,6	+6,1
23	NP-2013/Ya:1-NP-2014/114	57	11.05	0	0	27,1	+6,6
24	NP-2013/Ya:4-NP-2014/117	59	9.05	5	0	24,0	+3,5
25	NP-2013/Ya:19-NP-2014/133	84	9.05	10	0	24,2	+3,7

Xulosa. Lalmi yumshoq bug'doyning qimmatli xo'jalik belgilariga ega bo'lgan eng yuqori ko'rsatgichlarni namoyon etgan nav va tizmalar SP II-2013/65, SP II-2013/78, SP II-2013/83, SP II-2013/104, SP II-2013/174, SP II-

2013/66, SP II-2013/272, IK.SP II-2013/8, IK.SP II-2013/99, IK.SP II-2013/20, KP-2013/29, KP-2013/54, KP-2013/1, KP-2013/19 tanlab olindi va seleksiyaning keyingi bosqichlariga o'tkazildi.



References:

1. A.Amanov G'alla ekinlari.-Toshkent: "Tafakkur qanoti" 2019. -3-bet.
2. Jo'raev M.A. Yumshoq bug'doy navlarini yaratishda olib borilgan tadqiqot natijalari. «O'zbekistonda g'allachilikning yaratilgan ilmiy asoslari va uni rivojlantirish istiqbollari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferençiyasi. Ilmiy maqolalar to'plami. Jizzax-2013 yil, 23-may 22-25 betlar.
3. Кумаков В.А. Яровые пшеницы.– М.: Колос, 1978. –С. 52-56.
4. Лелли Я. Селекция пшеницы. Теория и практика. Пер. с англ. Н.Б.Ронис. – М.: Колос. 1980. – 384 с.